



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abdullayeva Nilufar
Jambulova Matluba
Hafizova Kumushbibi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya : *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tabiya berishda innovatsion Texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, innovatsion texnologiyalarni Maktabgacha ta'limga olib kirish avzaliklari va bolalarga iqtisodiy tabiya berishda Innovatsion metodlarning tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar:*globallashuv, innovatsiya, innovatsion faoliyat, gerirbolizatsiya, Aglutinatsiya, aqliy xujum, uzluksiz ta'lim, iqtisodiy tarbiya, texnologiya.*

Abstrakt : *Bugungi kunda ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud Taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jjamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir.*

Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmunida yosh avlodga ilmiy bilimlarni berish, Ularda keng dunyoqarashni shakllantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga nisbatan yangi talablarning belgilanganligi pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan Innovatsion yondashuvni qaror toptirish zarurligini ko'rsatmoqda. Uzluksiz ta'lim Tizimining barcha bosqichlarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yuqori samaradorlikka erishish shartlaridan biri – bu ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish va uni nafaqat ta'lim jarayoniga balki tarbiya jarayoniga olib kirish sanaladi. Bularning hammasi Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning yaqin Besh yildagi, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini isloh qilinishiga oid bir qator Hujjatlarni tasdiqlab, uni amaliyotga tatbiq etganliklaridan dalolat beradi. Keltirilgan fikirlarga asoslangan holada maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi innovatsion Texnologiyalarni olib kirish va uni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga tatbiq etish Masalasi hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan sanaladi. Biz quyida innovatsiya Tushunchasi, uning mazmuni, metodologik asoslari, ta'lim jarayonidagi ahamiyati va Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion Texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritimiz. "Innovatsiya" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "yangilik kiritish" bo'lib, mantiqan "tizim ichki tuzilishini o'zgartirish" sifatida e'tirof etiladi. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'yekt Sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat






tizimidir. Yangi ijtimoiy munosabatlarning innovatsion xarakterdagi ta'lim dasturlarida aks etishi pedagoglar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari o'rtasida o'zaro hamkorlikning Yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Innovatsion xarakterga ega ta'limiy dasturlarni amaliyotga. Tatbiq etishda pedagogik jamoa va ota-onalarning ta'lim tizimi boshqaruv organlari, davlat Va mahalliy tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy va tijorat yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi Muassasalarning birdek faol ishtiroki ta'minlanadi. So'nggi yillarda pedagogik jamoatchilik orasida ta'lim muassasalari faoliyatini Tashkil etish vazifasini ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshirilishi maqsadga Muvofiqligini ifodalovchi qarashlar shakllandi. Bu esa ta'lim tizimining davlat organlari Bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida boshqarilishini anglatadi. Mazkur hamkorlik ijtimoiy tashkilotlarga davlat organlari bilan birgalikda ta'lim mlluassasalari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim Loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalari uchun ajratilayotgan budjet taqsimoti, ularning strategiyasini belgilash va maktabgacha ta'lim jarayoniga nisbatan ijtimoiy ta'sirlarning yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. "Innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalarining mohiyati ta'lim tizimiga Innovatsion g'oyalarni tatbiq etish, innovatsion faoliyatning turli qirralari Sh.A.Amonashvili, V.A.Slastenin, O'.Q.Tolipov, X.I.Ibragimov, Sh.K.Mardonov, U.N.Nishonaliyev, N.Shodiyev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. "Innovatsiya" tushunchasi ilk bor XIX asrda amalga oshirilgan tadqiqotlarda Qo'llanilgan bo'lib, muayyan sohada erishilgan madaniyat yutuqlarining ma'lum qismlaridan boshqa sohada qo'llanilishini anglatadi. V.I.Slobadchikovning fikriga ko'ra innovatsion faoliyat har qanday ijtimoiy Amaliyot negizida aks etadi va mavjud an'analar mazmunida sezilarli o'zgarishlarning ro'y berishini ta'minlaydi. Shu jihatdan qaraganda har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyatni Innovatsiya sifatida e'tirof etish mumkin. Jumladan, "innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish "Innovatsion faoliyat" Termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir Ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni aniq, muayyan subekt nuqtai nazaridan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin". "Innovatsiya" tushunchasini o'zbek tilida "yangi", "yangilik" kabi ma'noda Ifodalash ham to'g'ri sanaladi. S.I.Ojegov "yangi" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: ilk bor tashkil topgan .Yoki yaratilgan, yaqinda paydo bo'lgan yoki yuzaga kelgan, avvalgisi o'rniga yuzaga kelgan, yaqin o'tmishga taalluqli yoki hozirgi kunga qadar yetarlicha yoki u qadar ma'lum Bo'lmagan". Anglanganidek, tushunchaga berilgan izohda ilg'orlik, yangilikning samarasi xususida so'z yuritilmagan. Aytish mumkinki, barcha yangilik ham ilg'or xususiyatga ega Bo'lmaydi. Ilg'orlik negizida birinchi navbatda samaradorlik, samara ifoda etiladi. M.M.Potoshnik ana shu nuqtai nazardan yangilikning ilg'orligini qo'lga kiritilgan natijalar bilan tavsiflash mumkinligini aytib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion





texnologiyalardan foydalanish masalasi yuzasidan quydagi firirlarni kiritib o'tish o'rinli hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham bolalarning iqtisodiy tafakkurni Shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g'amxo'rlik ko'rsatmoqda va soha mutaxassislari bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishdan asosiy maqsad bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan. Bu borada Al- Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga puxta bo'lishi kerak. Shunda u o'z Mehnatining (o'zgalarning ham) natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkinligi haqida aytadi. A.N.Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z Mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka Olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". A.Avloniy "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur" yana " Hozirgi zamonda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur" kabi qimmatli g'oyalarni olg'a surgan. Masalan, uning quyidagi fikrlarini ko'raylik: "Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar, yevropaliklar o'zimizdan olgan 5 tiyinlik paxtamizni o'zimizga 25 tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, Xususan, turkistonliklar, dumba sotib, chandir chaynaymiz: qaymoq berub, non o'rniga Kesak tishlaymiz, so'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va Ma'rifat ila barobar iqtisod, insof tugamas sa'l, bitmas g'ayrat lozimdir". Ahmad Yugnakiy "Hibbatul haqoyiq"da: "Mol-mulksiz kishi uchun bilim - bitmas- Tuganmas mulkdir, kambag'al uchun bilim hisob - xatosiz hisobdir". Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o'zining ilmi bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko'nikmalarini Shakllantiradi va o'z hayotini oqilona tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion Texnologiyalardan foydalanish jarayonini amalga oshirishda quydagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.

Kashf etmoq- bu metod orqali bolalarning kashfiyotchilik qobilyati, fantaziya kuchi Oshiriladi. Bolalarga "Agarda men...", "Agarda..." kabi boshlang'ich qo'zg'atuvchi savol Tashlab qo'yiladi. Bolalar o'zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari Lozim bo'ladi. Masalan, "Agarda men suv bo'lib qolsam...", "Agarda yer yuzida har kuni Quyosh chiqib turmasa...", "Agarda suv bo'lmasa..." kabi. Obrazli rasmlar-bu metodda ob'ekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. Bola tanlangan Ob'ekttni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik Ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad Bolalarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri,





xayoloti va Har bir buyumlardan o'z o'rnida foydalanish yuzasidan mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Agglyutinatsiya – bu metod orqali bolalar o'z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo'lgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin. Misol uchun muzlik davri, mavguli ham agglyutinatsiya mahsulidir. Aqliy hujum- metodi bolalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Metod mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. mashg'ulotda bolalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, bolalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni ba'holab borishdan voz kechishdir. "Ramziy ko'rinish"- Ushbu metodda ob'ekt bolalar tomonidan hissiy-ramziy nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tanlangan ob'ekt va uning ramzi orasidagi bog'lanishlar izlanadi, ob'ektning grafik, belgisi, so'zlar orqali biror ko'rinishda ramzini yaratish talab etilib, eng asosiysi, bu ramzni talqin etish, asoslab berish hisoblanadi. Metodning maqsadi o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtira olish, Ularni rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatish, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, innovatsion tasavvurni shakllantirishdan iborat.

Everistik savollar- Bu metodda tanlangan hodisa yoki ob'ekt to'g'risida Ma'lumot to'plash maqsadida 7 ta tayanch so'roq so'zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Qanday? Qay tarzda? Nima uchun? So'roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi "Qachon va qay tarzda?" "Kim va qachon?", "Kim va nima uchun?" kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori ba'holanadi. Maqsad –O'rganilayotgan ob'ektning mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, bolalarning tahliliy va Mantiqiy fikrlash malakasini oshirish va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bolalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000.
- 3.Internet ma'lumotlari.

